

## HINDIY TILINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALAR HAMDA IJTIMOIY TARMOQLARNING O'RNI

**Ismatullayeva Mo'tabar Xushvaqt qizi**

TDSHU Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o'qituvchisi  
Email: mutabarismatullaeva@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*XXI asr axborot asridir degan fikr so 'nggi 3-4 yil ichida ayniqsa, o'z tasdig'ini topmoqda. Ko'plab sohalar singari til o'rghanish borasida ham zamonaviy texnologiyalar yetakchi o'ringa chiqmoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rghanishda raqamli texnologiyalar, xususan, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola hindiy tilini o'qitishda ushbu vositalarning rolini tahlil qiladi, ularning afzalliklari, cheklovlar va ta'lif jarayoniga ta'sirini ko'rib chiqadi. Maqolada zamonaviy ta'lif usullariga mos keladigan strategiyalar va amaliy tavsiyalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** Hindiy tili, mobil ilova, Duolingo, HelloTalk, Memrise, LearnHindiFree ijtimoiy tarmoqlar, Telegram, Instagram, Facebook, X.

### ABSTRACT

*The idea that the 21st century is the information age has been gaining momentum in the last 3-4 years. As in many other areas, modern technologies are taking a leading role in language learning. Today, digital technologies, in particular mobile applications and social networks, are playing an important role in learning foreign languages. This article analyzes the role of these tools in teaching Hindi, considers their advantages, limitations and impact on the educational process. The article provides strategies and practical recommendations that are compatible with modern teaching methods.*

**Keywords:** Hindi, mobile application, Duolingo, HelloTalk, Memrise, LearnHindiFree, social networks, Telegram, Instagram, Facebook, X.

### АННОТАЦИЯ

*Идея о том, что XXI век — век информации, набирает обороты в последние 3-4 года. Как и во многих других областях, современные технологии занимают ведущую роль в изучении языка. Сегодня цифровые технологии, в частности мобильные приложения и социальные сети, играют важную роль в изучении иностранных языков. В данной статье анализируется роль этих инструментов в обучении хинди, рассматриваются их преимущества, ограничения и влияние на образовательный процесс. В статье приводятся*

*стратегии и практические рекомендации, совместимые с современными методами обучения.*

**Ключевые слова:** Хинди, мобильное приложение, Duolingo, HelloTalk, Memrise, LearnHindiFree, социальные сети, Telegram, Instagram, Facebook, X.

## KIRISH

Hindiy tili dunyodagi eng ko‘p so‘zlaniluvchi tillardan biri bo‘lib, Hindistonning rasmiy tili sifatida katta madaniy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Globalizatsiya sharoitida hindiy tilini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Ko‘p yillar davomida hindiy tilini yurtimizda o‘qitish, asosan, an’anaviy ta’lim usullari va metodlarga tayanib keldi. An’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar tillarni o‘rganishda yangi imkoniyatlар yaratmoqda. Ushbu vositalar o‘quvchilarga moslashuvchan, qulay va interaktiv muhit taqdim etadi. Maqola hindiy tilini o‘qitishda ushbu platformalarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada hindiy tilini o‘rganishda ushbu zamonaviy imkoniyatlardan foydalanishning afzalliklari, kamchiliklari, qulay va noqulay tomonlari ko‘rib chiqiladi.

### **Mobil ilovalar va hindiy tilini o‘rganish: Afzalliklari va kamchiliklari.**

Mobil ilovalar ta’lim sohasida inqilobiy o‘zgarishlar keltirdi. “Duolingo”, “HelloTalk”, “Memrise”, “Babbel” kabi ilovalar, shuningdek, hindiy tilini o‘rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan ilovalar, masalan, “Learn Hindi Free”, “Learn Hindi language”, “Учите Хинди” kabilar o‘quvchilarga qulay va moslashuvchan o‘quv muhitini taqdim etadi.

Tilni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni mobil ilovalardan foydalanishga chorlash, ular o‘z ustida darsdan tashqarida ham ishslash imkoniyatini beradi. Yo‘lda, avtobus, taksilarda ham qiyinchiliksiz o‘z til boyligini oshira olishiga yordam beradi. Shu jihatdan kelib chiqqan holda, mobil ilovalarning o‘ziga xos afzalliklarini quyidagilarda deb ko‘rsata olamiz:

- **Qulaylik:** O‘quvchilar istalgan vaqtida va joyda ilovadan foydalanishlari mumkin. Makon va zamon tushunchasi noqulaylik tug’dirmaydi.
- **Interaktivlik:** Ilovalar o‘yin elementlari, testlar va audio-vizual materiallar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Har bir o‘rganilgan mavzudan so‘ng testlar va o‘yinlar mavjudligi o‘rganuvchining fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Bunda butun sinfdagi o‘quvchilarning to‘plagan ballari solishtirilib, reyting tashkil etilsa, o‘rganish jarayoni yanada qizg’inlashadi. O‘quvchilar reytingda yuqori o‘rin olish uchun ham harakat qila boshlaydilar.
- **Turli darajalar mavjudligi:** Mobil ilovalarda o‘rganuvchi shaxsning til bilish darajasiga qarab topshiriqlar beriladi. Bu esa o‘quvchining til bilish ko‘rsatkichidan

qat'i nazar ulardan foydalana olishini ta'minlaydi. Daraja chegarasi yo'qligi barcha uchun til o'rganish imkoniyatini yaratadi.

- Tartiblilik: Ko'pgina ilovalarda o'rganish mavzulari turli bosqichlarga bo'lingan bo'ladi, birini tugatmay turib, ikkinchisiga sakrab o'tib keta olmaysiz. Masalan, "Учите Хинди" ilovasida avvaliga Devanagari alifbosi, so'ngra ranglar, salomlashish va olmoshlar mavzusi bor, mana shularni o'rganib, testdan o'tganingizdan so'nggina keyingi mavzularga o'ta olasiz. Bu esa o'rganish jarayonidagi tizimlilikni ta'minlaydi.

- Audio va talaffuz: Hindiy tilining talaffuzini o'rganishda ovozli mashqlar va nutqni aniqlash texnologiyalari muhim yordam beradi. Xususan, "Hindi Speaking & Listening" nomli mobil ilovada turli mavzudagi hindiy tilidagi dialoglarni tinglash va ularni qaytarish mumkin, dialoglarni to'g'ri talaffuz qilayotganingizni ilova tinglab baholaydi va necha foiz to'g'ri talaffuz qila olayotganingizni sizga taqdim etadi. Bundan tashqari, aynan qaysi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilayotganingizni ham qizil ranglarda ko'rsatib turadi.

Mobil ilovalardan til o'rganishda foydalanishning bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda ko'rindi:

- Internetga bog'liqlik: Ba'zi ilovalar faqat onlayn rejimda ishlaydi. Bu esa foydalanuvchi tarmoqdan uzilgan vaqtda ilovadan foydalanishini cheklaydi.

- Motivatsiya yetishmasligi: O'quvchilar mustaqil ravishda o'qishda doimiy motivatsiyaga ega bo'lmasligi mumkin. Mustaqil ravishda o'z ustida ishslashdan ko'ra til o'rganuvchining boshqa kontentlarga chalg'ish ehtimoli yuqori bo'ladi.

"Duolingo" ilovasi doimiy ravishda o'rganuvchiga ruhlantiruvchi so'zlar yoki yengil tanbehma o'xshash jumlalar bilan dars qilishga undovchi eslatmalar yuboradi. Lekin bu ham muntazam ravishda shug'ullanish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

- Madaniy kontekstning yetishmasligi: Ilovalar ko'pincha hindiy tilining madaniy va kontekstual jihatlarini to'liq yoritmaydi. Ilova orqali o'rganiladigan so'z va matnlar asosan qoliplashgan bo'lib, jonli so'zlashuvda ishlatiladigan hindiy tilidan farq qilish ehtimoli katta.

Aynan mana shu kamchilikni ijtimoiy tarmoqlar yengillashtirish imkoniyatiga ega. Quyida ijtimoiy tarmoqlar orqali hindiy tilini o'rganish afzalliklarini ko'rib chiqamiz.

### **Ijtimoiy tarmoqlarning hindiy tilini o'qitishdagi o'rni**

Ijtimoiy tarmoqlar, "YouTube", "Instagram", "Facebook", "Twitter (X)" va "Telegram", to'g'ri foydalanylarda ko'plab yangi sohalarni o'rganish platformalariga aylandi. Shu jihatdan til o'rganishni ham ushbu tarmoqlarda bemalol amalga oshirsa bo'ladi. Ushbu tarmoqlar o'quvchilarga real vaqtda muloqot qilish,

o‘quv materiallarini almashish va hindiy tilida so‘zlashuvchilar bilan bog‘lanish imkonini beradi. O‘quvchilarga hindiy tilini o‘rgatish jarayonida dars tarkibiga ijtimoiy tarmoqlarni kiritish quyidagicha afzalliklarga ega deb topildi:

- Jonli muloqot: O‘quvchilar hindiy tilida so‘zlashuvchilar bilan guruhalr va jamoalarda muloqot qilishlari mumkin. Barchaga qulay vaqtini belgilab, ona tili hindiy tili bo‘lgan insonlar bilan ovozli yoki video chatlar tashkil qilish mumkin, dars davomida turli o‘quv muassasalari xodimlari bilan videokonferensiylar amalgaloshirish, shu orqali o‘quvchilarni tilning jonli muhitida ushlab turish va gapirishdagi to‘sinqi olib tashlashni yengillashtirish mumkin.

- O‘quv kontenti: YouTubeda hindiy tili darslari, Instagramda qisqa videolar va Telegram kanallarida bepul materiallar mavjud. Hozirda til o‘rgatish bo‘yicha turli tillarga oid “Language Bloge”larning ta’limiy videokontentlarini istalgan tarmoqdan topish mumkin. O‘qituvchi ularning munosibini tanlab, o‘quvchilarga tavsiya berishi maqsadga muvofiq. Masalan, “You Tube” tarmog‘idagi “Learn Hindi with HindiPod101.com”, “Hindi Tv”, “Hindi Sumvaad” kanallari hindiy tilini o‘rganish uchun eng sifatli ma’lumot va darslarni taqdim etuvchi kanallar hisoblanadi.

- Madaniy boylik: Ijtimoiy tarmoqlar hindiy tilining madaniy kontekstini, shu jumladan qo‘shiqlar, filmlar va an’analarni o‘rganishga yordam beradi.

- Turli guruhlarda birlashish: O‘quvchilar o‘zlariga o‘xshash maqsadli odamlar bilan guruhlarda birlashib, bir-birini rag‘batlantiradi.

Xuddi mobil ilovalar kabi, til o‘qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ham o‘ziga yarasha noqulaylik hamda kamchilik taraflari mavjud. Tahlillar natijasida quyidagilarni kamchilik sifatida qabul qilindi:

- Ma’lumotlarning sifati: Ijtimoiy tarmoqlardagi kontentning sifati har doim ham kafolatlanmaydi. Berilayotgan ma’lumot to‘g’ri yoki noto‘g’riligini endi til o‘rganayotgan o‘quvchi ajrata olmasligi tabiiy, kerakli va keraksiz kontentlarga chalg‘ish ham ko‘zga tashlanishi mumkin.

- Chalg‘ituvchi omillar: Reklama va boshqa kontent o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itishi mumkin.

- Tizimli o‘qitishning yo‘qligi: Ijtimoiy tarmoqlar ko‘pincha tizimli darslardan ko‘ra tasodifiy o‘quv materiallarini taqdim etadi. Bu esa tizimli o‘rganish jarayonidan farqli ravishda o‘quvchining xotirasida saqlanib qolish imkonini kamaytiradi.

### **Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan birgalikda foydalanish**

Hindiy tilini samarali o‘qitish uchun mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarni birgalikda qo‘llash tavsiya etiladi. Masalan:

- Ilovalar orqali asosiy bilimlarni olish: O‘quvchilar Duolingo yoki Babbel kabi ilovalar orqali grammatika va so‘z boyligini o‘rganadi.

- Ijtimoiy tarmoqlarda amaliyat: Instagram yoki Telegram guruhlarida o‘quvchilar o‘z bilimlarini real muloqotda sinab ko‘rishlari mumkin.

- “YouTube” darslari bilan boyitish: YouTube’dagi hindiy tili o‘qituvchilarining darslari ilovalardagi mashqlarni to‘ldiradi.

Shuningdek, ushbu mavzuga doir quyidagi amaliy tavsiyalarni taqdim etamiz:

O‘qituvchilar uchun: Mobil ilovalarni sinf darslariga integratsiyalash, masalan, talaffuz mashqlari uchun ilovalardan foydalanish hamda ijtimoiy tarmoqlarda o‘quv guruhlarini tashkil qilish va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash.

O‘quvchilar uchun: Har kuni 10-15 daqiqa mobil ilovalarda mashq qilish hamda hindiy tilida so‘zlashuvchilar bilan ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish.

Ilova ishlab chiquvchilar uchun: Hindiy tilining madaniy va kontekstual jihatlarini ko‘proq qamrab oladigan ilovalar yaratish va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun gamifikatsiya elementlarini kengaytirish.

## XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar hindiy tilini o‘qitishda muhim vositalarga aylandi. Ular qulaylik, interaktivlik va real vaqtida muloqot imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, ularning samaradorligini oshirish uchun sifatlari kontent, tizimli yondashuv va o‘quvchilarning doimiy motivatsiyasi zarur. Kelajakda ushbu texnologiyalarni yanada integratsiyalash va takomillashtirish hindiy tilini o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sharma, R. (2023). Technology in Language Learning: Opportunities and Challenges. New Delhi: Academic Press.
2. Kumar, S. (2024). The Role of Social Media in Education. Journal of Educational Technology, 12(3), 45-56.
3. Duolingo. (2025). Hindi Language Learning Report. Retrieved from [www.duolingo.com](http://www.duolingo.com).
4. UNESCO. (2024). Digital Education and Language Learning. Paris: UNESCO Publications.